

INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNI MEXANIKA BO'LIMINI O'QITISHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI

Mavlonova Xilola Jumayevna

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti fizika o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada innovatsion ta'lim sharoitida talabalarni mexanika bo'limini o'qitishning bugungi kunda talabalarning nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda eksperimental malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Fizika fanini o'qitishning ilmiy-nazariy hamda uslubiy asoslarini rivojlantirish, zamonaviy o'qitish texnika vositalari hamda usullaridan dars davomida qo'llashda innovatsion ta'lim muhitining tashkil etish hamda ta'limda innovatsion yondashuv asoslari ishlab chiqish imkoniyatidan foydalanishni taqazzo etadi.

Kalit so'zlar: *innovatsiya, ilmiy-nazariy, virtual, interaktiv, texnologiya, harakat, ta'lim, shaxs, bilim.*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена развитию у студентов теоретических знаний, практических навыков и экспериментальных навыков преподавания кафедры механики в условиях инновационного образования. Рекомендуются разработка научно-теоретических и методических основ обучения физике, использование на уроке современных приемов и методов обучения, организация инновационной образовательной среды и разработка основ инновационного подхода к обучению.

Ключевое слово: *инновационный, научно-теоретический, виртуальный, интерактивный, технология, действие, образование, личность, знание.*

ANNOTATION

The article focuses on the development of students' theoretical knowledge, practical skills, and experimental skills of teaching mechanics department in the conditions of innovative education. The development of the scientific-theoretical and methodological foundations of teaching physics, the use of modern teaching techniques and methods during the lesson, the organization of an innovative educational environment and the development of the foundations of an innovative approach to education are recommended.

Key word: *innovation, scientific-theoretical, virtual, interactive, technology, movement, education, personality, knowledge.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son farmoni[2], “Uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son[3] va “Fizika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son qarorlari[1] va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda innovatsion ta‘lim sharoitida mexanika bo‘limini o‘qitish bo‘yicha talabalarining innovatsion kompetensiyalari uzluksizlik, ilmiylik, pedagogik, metodik hamda didaktik tamoyillarga tayangan holda o‘qitish nazarda tutilgan. Unga ko‘ra talabalarni mantiqiy fikrlashga, fanga ilmiy hamda ijodiy yondashishga o‘rgatadi, o‘quv mavzularini o‘zlashtirishni osonlashtiradi, ilmiy dunyoqarashning shakllanishida muhim jarayon bo‘lib xizmat qiladi

J.C.Podimova innovatsiya rivojlanishining quyidagi bosqichlarini yaratgan paytdan boshlab mualliflik kontseptsiyasini amalga oshirishgacha bo‘lgan bosqichlarni belgilaydi, ya‘ni ommaviy amaliyotga joriy etishdan oldin[4]:

- ta‘lim va tarbiya haqidagi muallif g‘oyasini yoki raqamlashgan sharoitdagi mualliflik kontseptsiyasini yaratish;

- g‘oyani innovatsion ta‘limning pedagogik faoliyatda amalga oshirish orqali reja va dasturlar mazmunini ishlab chiqish;

- muallifning kontseptsiyasini dastlabki sinovdan o‘tkazish va keyinchalik tuzatish, innovatsiyalarni himoya qilishda hamfikrlarni va yangi dalillarni izlash;

- muallif g‘oyasini amalga oshirish, tajriba va ijodiy izlanishlar asosida yangilik yaxlitligini loyihalash;

- yangilikning ommaviy amaliyotda foydalanishga tayyorligi[4].

Innovatsion ta‘lim faoliyatning ko‘plab turlari mavjud. Shunga ko‘ra, innovatsiyalarni yaratish, o‘zlashtirish va amalga oshirishga tayyorgarlik innovatsion ta‘lim faoliyatning muayyan turiga qaratilgan. Innovatsiyalarni takror ishlab chiqarish muammosi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish uning bir necha yo‘nalishda hal qilinganligini ko‘rsatdi. Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining ta‘lim sohasidagi yangiliklar S.D.Polyakovning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan[5]. Innovatsion ta‘lim sharoitda o‘quv muassasalarda samarali boshqaruv sharoitlarini asoslab berdilar.

Innovatsion ta‘lim sharoitida talabalarni o‘qitishning bugungi kundagi holati quyidagilardan iborat.

1. Talabalar innovatsion ta‘lim sharoitida o‘rganish muammoni ijodiy yechish;

2. Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarni o'qitishning tadqiqotni uyg'unlashtirish;


3. Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarni o'qitishda shaxs, ong, me'yorlarining o'zgarishini doimo rivojlanishdir

4. Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarni guruhda o'qitishda shaxs va jarayonni rivojlantirish samaradorligini oshirish;

5. Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarni o'qitishning iqtidorini oshirish.

Fizika fani mexanika bo'limini texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga innovatsion ta'lim sharoitda o'qitishda pedagogik texnologiyalar va pedagogik faoliyatning uzluksizligini, shu bilan birga uzviylikligini innovatsion ta'lim yondashuvlar asosida ta'minlashning ahamiyati sifatida o'qitish jarayonining samaradorligi o'quv jarayonini bosqichma-bosqich loyihalash, jarayonni takomillashtirish hamda ta'lim natijasini oldindan aniq belgilanishiga bog'liq.

Yuqorida tahlil qilingan innovatsion ta'lim sharoitida texnika oliy ta'lim muassalarida mexanika bolimini o'qitish jarayonini takomillashtirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarni o'qitish jarayoniga tatbiq etish hamda o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha jarayonlar tahlil qilindi.



(1- rasm.) innovatsion ta'lim sharoitida talabalarni fizika fanining mexanika bo'limini o'qitish jarayonlari

Shunday qilib, innovatsion ta'lim sharoitida talabalarni mexanika bo'limini o'qitishning bugungi kundagi holati o'qitish tizimini shakllantirishni nazarda tutadi, ularsiz innovatsion ta'lim faoliyatni amalga oshirish mumkin emas, lekin oliy ta'lim muassasalari talabalarini innovatsion ta'lim sharoitga tayyorlash bo'yicha barcha ishlarning asosiy maqsadi nafaqat kompetensiyani rivojlantirish tizimini ishlab chiqishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son qarori.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. 4-jild. –B. 704.
5. Yunusova D.I. Bo‘lajak matematika o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti: ped.fan.dok. ... diss. –Toshkent, 2012. -270 b.